

## INGLIZ TILIDA OILAVIY MUNOSABATLARNI IFQDALOQCHI MAQOLLARNING LEKSIK- SEMANTIK TAHLILI

*Yadgorova Shohista Sobir qizi, Termiz servis va iqtisodiyot universiteti magistranti*

## ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ ПОСЛОВИЦ, ОТРАЖАЮЩИХ СЕМЕЙНЫЕ ОТНОШЕНИЯ

*Ядгорова Шохиста Собир кызы, магистрант Термезского университета сервиса и экономики*

## THE LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF PROVERBS EXPRESSING FAMILY RELATIONS IN ENGLISH

*Yadgorova Shohista Sobir qizi, Master's student, Termiz State University of Service and Economics*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek paremiyalarida oilaviy qadriyatlarning aks etishi, ularning til va madaniyatdagi ifodalananish usullari tahlil qilinadi. Har ikki xalqning oila haqidagi qarashlari, uni muqaddas va daxlsiz maskan sifatida talqin etishi xalq maqollarida o'z ifodasini topgan. Shuningdek, maqolalarda ishlataligan hayvonot olamiga oid metaforalar (zoonimlar) yordamida oilaviy muhitda insonning o'rni, unga bo'lgan munosabat tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** paremiologiya, oila, ingliz maqollari, o'zbek maqollari, madaniyatlararo qiyos, zoonimlar, oilaviy qadriyatlar, xalq donishmandligi, til va madaniyat, paremiologik birliliklar.

**Abstract:** This article analyzes how family values are reflected in English and Uzbek proverbs, as well as how they are expressed through language and culture. Both nations view the family as a sacred and inviolable institution, which is clearly represented in their traditional sayings. Additionally, the use of metaphors related to the animal world (zoonyms) in proverbs is examined, illustrating the individual's role in the family and societal attitudes toward family relations.

**Keywords:** paremiology, family, English proverbs, Uzbek proverbs, intercultural comparison, zoonymy, family values, folk wisdom, language and culture, paremiological units.

**Аннотация:** В статье рассматривается отражение семейных ценностей в английских и узбекских пословицах, а также способы их выражения в языке и культуре. В обоих народах семья воспринимается как священное и неприкосновенное пространство, что находит яркое отражение в народной паремиологии. Также анализируются зоонимические метафоры, использованные в пословицах, через которые передаётся представление о роли личности в семейной среде и отношении общества к семейным отношениям.

**Ключевые слова:** паремиология, семья, английские пословицы, узбекские пословицы, межкультурное сравнение, зоонимы, семейные ценности, народная мудрость, язык и культура, паремиологические единицы.



<https://orcid.org/0009-0002-8310-3285>  
e-mail:  
[shoxistayodgorova7@gmail.com](mailto:shoxistayodgorova7@gmail.com)

## KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Folklor tili doimo lingvistlar e'tiborida bo'lgan. So'nggi bir necha o'n yillikda madaniyatshunoslik va filologiyaga oid tadqiqotlarning yangi yo'nalishi – lingvofolkloristika shakllandi. Paremiya janri folkloarning bir turi va murakkab lingvistik belgi sifatida zamonaviy fan uchun nihoyatda qimmatli va boy material hisoblanadi. Ular lingvokulturologiya, etnolingvistika, lingvistik aksilogiya, kognitiv lingvistika kabi yo'nalishlar uchun katta evristik salohiyatga egadir. Xalq donishmandligi patriarchal davrdagi oilaning tashkil etilish manzarasini beradi, bu manzara dehqonlar muhitida obyektivlashgan va aynan shu muhitda paremiologik fond shakllangan. Diniy axloq nuqtayi nazaridan nikoh uchta lingvomadaniy jamiyatda ham muhim hisoblanadi. Injil konsepsiyasining asosi – nikohning muqaddasligi haqidagi tezis bo'lib, bu fikr paremiologik iborada ifodalangan: Marriage is honorable (Nikoh sharaflidir). Sharq paremiologiyasida nikohga turlicha munosabat ifoda etilgan. Balki nikohning kam baholanishi uning kech yoshda tuzilishi va oilaning iqtisodiy ixtisoslashuvni bilan bog'liqdir. Ingliz xalqining paremiologik birlıkları nikohga pragmatik yondashuvni aks ettiradi, ya'ni ayol dehqon xo'jaligi uchun mutlaq zarur shaxs sifatida qaraladi. Turk va tatar maqollarida esa oila-qarindoshlik hayotining ma'naviy tomoni, ya'ni uning mikroiqlimi aynan ayolga bog'liq ekanligi konseptuallashtiriladi. Angliya oilalari o'zlarining an'anaviy qarashlari va konservativ qadriyatlarga sadoqati bilan boshqalardan farq qiladi. Buyuk Britaniyada eng ko'p uchraydigan oila shakli — kichik, tarkibida odatda ota, ona va ikki farzanddan iborat bo'lgan oiladir. U yerda katta oila bo'lib, qarindosh-urug'lar bilan yaqin aloqada yashash keng tarqalmagan. Shunga qaramay, inglizlar oilani tabiatning eng go'zal ne'matlaridan biri, deb biladi: "The family is one of nature's masterpieces" (Oila — tabiatning durdona yaratmasidir) va "The life of family is life's greatest blessing" (Oilaviy hayot — insonga berilgan eng ulug' ne'matdir), degan tushuncha ular uchun juda muhimdir[5].

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METOD  
(ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Mashhur ingliz shoiri Jorj Bayronning fikricha, insonni chin dildan sevishsa, u

yer uning uyi, ya'ni o'z makoni bo'lishi mumkin [6]. Bu fikr inglizlar uchun oila nafaqat muqaddas qadriyat, balki faxr va g'urur manbai ekanini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda aytilishicha, ingliz oilasi odatda tor doirada yashaydi – tashqi odamlar ularning shaxsiy hayotiga aralashishi juda qiyin. Ayniqsa, o'rta tabaqa vakillari o'z oilaviy muhitini chetdagilardan himoya qilishga intiladi. Shuning uchun inglizlar orasida "Uyim — mening qal'am" degan ibora keng tarqalgan. Tadqiqotchi L.E.Xolmurodovning ta'kidlashicha, inglizlar uchun oila shunchaki boshpana emas, balki ruhiy osoyishtalik topiladigan joy, ya'ni xotirjamlik bandargohidir[8]. Bu joyda ular o'zlarini erkin his qiladilar va hech qanday majburiyatni bosim deb qabul qilmaydilar. Inglizlar mustaqil fikrlashni qadrlaydi va shaxsiy hayoti haqida ochiqchasiga gapirishni noo'rin deb biladi. Ularning hayot tarzi jamiyatdagi odob-axloq me'yorlarini shakllantiradi, bu yerda haddan oshgan ochiqlik yoki axloqsizlikka o'rin yo'q[2].

## MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Inglizlar uchun oila – bu tanlov emas, balki taqdirdan, Yaratgandan berilgan ne'matdir. Ular shunday deyishadi: "You may choose your friends, your family is thrust upon you" – ya'ni "do'stlaringni tanlashing mumkin, ammo oilangni emas". Ingliz maqollarida shaxsiy hudud va daxlsizlik g'oyasi yaqqol namoyon bo'ladi: "An Englishman's home is his castle" – ya'ni "har bir odam o'z uyida mustaqil, u yer uning qal'asi". O'zbek donishmandligi esa oilani muqaddas maskan, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan, vatandek aziz joy deb tasvirlaydi: "Oila – qo'sh ustunli ayvon", "Suvsiz hayot bo'lmas, vafosiz – oila". Bu maqollarda vafodorlik va mehr-oqibat muhim qadriyat sifatida ilgari suriladi[4]. O'zaro murosali oila baxt timsoli sifatida qaralsa, notinch oila umrni xazon qiladi: "Ahil oila – baxtli, noahil oila – vaqtli". Inglizlar fikricha ham, insondagi mehr va ezguliklar, avvalo, oiladan boshlanadi: "Charity begins at home". O'zbek maqollarida esa ota – oilaning tayanchi sifatida tilga olinadi: "Bosh bo'lмаган уйда, отаси турб о'гли со'злар". Bu degani, tartib va rahbarlik oilada muhim o'rin tutadi. Inglizcha "The child is father of the man" maqoli esa, farzand oilaning davomchisi, kelajak egasi ekanini eslatadi. Shuningdek, "Home is where the heart is" va "There's no place like home"

kabi maqollar oila – mehr va huzur manbai ekanini ta’kidlaydi. O‘zbek tilida esa bu mazmun “O‘z uyim – o‘lan to‘shagim” maqolida aks etadi. Shuningdek, “ro‘zg‘or” so‘zi ishtirokidagi maqollar ham oilaning mazmun va mohiyatini ochib beradi: “Yaxshi ro‘zg‘or – jannat, yomon ro‘zg‘or – do‘zax”[4].

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Ingliz tilida oila haqida turli hayvonot nomlari orqali fikr bildiriladi. Masalan, “Every cock is bold on his own dunghill”, “Every dog is valiant at his own door” kabi maqollar shuni anglatadi: inson o‘z uyida, o‘z muhitida o‘zini erkin va jasur his qiladi. Bu fikr o‘zbek tilida quyidagicha ifodalanadi: “It uyasida o‘zini yo‘lbars sanar”, “Qush inida ko‘rganini qilar”, “Chumchuq har narsani uyasida o‘rganar”. Bularning bari – inson o‘z muhitida, oilasida o‘zini qulay, tabiiy tutadi degan fikrga borib taqaladi. Oilaviy qadriyatlarning avloddan-avlodga o‘tishini inglizcha “The apple never falls far from the tree” va o‘zbekcha “Har ko‘katning o‘z suygan tuprog‘i bor” maqollari tasdiqlaydi [8]. Shuningdek, “Changal ham o‘z joyida gurillar” maqoli o‘z ildizidan uzilmaslik, inson o‘z tuprog‘ida qadrlanishini anglatadi. Ammo har bir jamiyatda yoki oilada salbiy shaxslar ham bo‘lishi mumkin. Inglizlar bu haqda “Every family has a black sheep” deyishsa, o‘zbeklar “Yomon mo‘ridan yomon tutun chiqar” deb ifodalaydilar. Birgina salbiy shaxs butun jamiyat yoki guruhgaga ta’sir qilishi mumkin: “One scabbed sheep will mar a whole flock” (inglizcha) va “Podada bir tirriq ho‘kiz bo‘lsa, butun podani tirriq qilar” (o‘zbekcha)[8].

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Yuqorida tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek paremiyalar orqali har ikki xalqning oila haqidagi tasavvurlari, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlari yorqin ifoda topgan. Har ikkala til paremiologik fondida oila — bu nafaqat ijtimoiy institut, balki axloqiy-ruhiy tayanch sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, hayvonot va qushlar olamiga oid zoonimlar ishtirokidagi maqollar oiladagi rollar, insonning o‘z muhitida erkinligi va jasorati kabi tushunchalarni obrazli tarzda ifodalaydi. Ingliz va o‘zbek xalqlarining oilaviy qadriyatlari umumiyliliklarga ega bo‘lishi bilan birga, har birining mentaliteti, tarixiy rivojlanish xususiyatlari va madaniy an‘analari asosida o‘ziga xos farqlarga ham egadir. Shu sababli, paremiologik

birliklarning chuqur tahlili nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, etnolingvistika va xalqona tafakkur sohalari uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):**

1. Cambridge Advanced Learners’ Dictionary, 2006. – 1129 p.
2. Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English, 7th edition, Managing Editor Joanna Turnbull; Principal Editor Diana Lea; Senior Editor Dilys Parkinson; Editors: Patrick Phillips, Ben Francis, Suzanne Webb, Victoria Bull; Phonetics Editor Michael Ashby.- Oxford, Oxford University Press, 2014 – 1796 p.
3. Provebs – Maqollar – Пословицы / Tuzuvchilar Karamatova K.M., Karamatov H.S. – Toshkent: Mehnat, 2000. – 400 b.
4. Ruziyeva S.A. “Oila” tushunchasi va uning ingliz va o‘zbek tillari madaniyatida aks etishi: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2020. – 52 b.
5. Митина И.К. Английские пословицы и поговорки и их русские аналоги. – СПб.: КАРО, 2006. – 336 с.
6. Мудрость тысячелетий. Энциклопедия. Автор-составитель В.Балызин. – М.: Красный пролетарий, 2006. – С.667.
7. Пословицы и поговорки народов Востока / Сост. Брегель Ю.Э. – М.: Изд. вост.лит., 1961. – 76 с.
8. Холмурадова Л.Э. Семейные ценности англичан, отраженные в английской фразеологической картине мира // Вестник Челябинского государственного университета. – 2012. №5 (259). Филология. Искусствоведение. Вып. 63. – С. 161–163.
9. Юсупов У.К. Сравнительный анализ английских и узбекских сложноподчиненных предложений с придаточными условиями: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971. – 19 с.